

**INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI
BOLALARNING PSIXOLOGIK MOSLASHUVI****Raximova Moxima Sobirovna****Surxondaryo viloyati Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti****Ta'lim- tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)****1-kurs magistranti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning inklyuziv ta'lim tizimiga moslashuv jarayoni, uning psixologik mexanizmlari va ularni belgilovchi omillar ilmiy asosda tahlil qilingan. Emotsional, ijtimoiy va kognitiv moslashuv komponentlari, pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash strategiyalari hamda oila va muassasa muhitining ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari inklyuziv muhitning to'g'ri tashkil etilishi bolalarning rivojlanish sur'ati, ijtimoiylashuvi va o'ziga bo'lgan ishonchini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv, moslashuv, maktabgacha yosh, psixologik qo'llab-quvvatlash, emotsional rivojlanish, ijtimoiy muhit.

Kirish

Hozirgi kunda ta'lim tizimida insonparvarlik tamoyillariga asoslangan inklyuziv yondashuv keng qo'llanilmoqda. Inklyuziv ta'lim barcha bolalarning, jumladan, jismoniy, aqliy yoki hissiy rivojlanishda muayyan cheklovlarga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning ham umumiy ta'lim tizimida qatnashishini ta'minlashga qaratilgan. Inklyuziv ta'lim — alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lim. Bu jarayon nafaqat ta'lim-tarbiyaning mazmuni va metodikasini qayta ko'rib chiqishni, balki pedagog, ota-ona hamda jamiyatning hamkorlikda ishlashini talab etadi.[1].

Globallashuv jarayonida ta'lim tizimlarida inklyuziv yondashuv ustuvor yo'nalishga aylanmoqda. Inklyuziv ta'lim barcha bolalarning teng imkoniyatlar asosida tarbiyalanishi va rivojlanishini ta'minlaydi. Ayniqsa, maktabgacha yosh — shaxs rivojlanishining eng sezgir va muhim bosqichi bo'lib, bu davrda bola yangi muhitga, atrofdagilarning talablariga, tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarga moslashadi

Inklyuziv ta'limga moslashuv

Inklyuziv ta'lim maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo'lib, u barcha bolalarning teng imkoniyatlarda tarbiya va ta'lim jarayonida ishtirok etishini ta'minlaydi. Bu jarayon ayniqsa maxsus ehtiyojli bolalar uchun nafaqat ta'limiy, balki emotsional, ijtimoiy va kognitiv rivojlanish nuqtayi nazaridan ham asosiy omil hisoblanadi. Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi eng muhim bosqich bo'lib, unda yangi muhitga, tarbiyachilar talablariga, tengdoshlari bilan munosabatlarga moslashish jarayoni sodir bo'ladi. Inklyuziv muhitga moslashuvning murakkabligi shundaki, bola bir vaqtning o'zida emotsional beqarorlik, xavotir, kommunikatsion qiyinchiliklar, yangi faoliyat turlariga moslashish kabi holatlar bilan to'qnash keladi. Shu bois inklyuziv ta'limda moslashuv jarayonining psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish zarur.[5].

Inklyuziv ta'limning mazmuni bolaning rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olib, unga individual yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishni anglatadi. Jahon miqyosida inklyuziya bo'yicha Vygotskiy, Bronfenbrenner, Ainsworth kabi olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar inklyuziv ta'limning psixologik asoslarini belgilab bergan. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi g'oyasi bolaga qo'shimcha yordam ko'rsatish orqali uning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish mumkinligini ko'rsatadi.[3]. Bronfenbrennening ekologik tizimlar nazariyasi esa bolaning rivojlanishi oilaviy, ijtimoiy va ta'limiy omillar o'zaro ta'sirida shakllanishini asoslab bergan. Shuningdek, Ainsworth tomonidan ilgari surilgan xavfsiz emotsional bog'liqlik nazariyasi bolalarning

moslashuv jarayonida tarbiyachi va ota-ona bilan ijobiy emotsional aloqaning muhimligini ko'rsatadi.

Inklyuziv muhitda moslashuv psixologik jihatdan uch asosiy komponent asosida shakllanadi: emotsional, ijtimoiy va kognitiv moslashuv. Emotsional moslashuv bolaning xavotir darajasining pasayishi, tarbiyachi bilan ishonchli muloqotga kirishishi, yig'lash epizodlarining kamayishi kabi belgilarda namoyon bo'ladi. Maxsus ehtiyojga ega bolalarda bu jarayon ko'proq vaqt talab qiladi, chunki ular yangi sharoitga moslashishda ortiqcha qo'llab-quvvatlovga muhtoj bo'ladilar. Ijtimoiy moslashuv esa bola va uning tengdoshlari o'rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Bolaning guruh faoliyatida ishtirok etishi, o'yinlarda rolni bajara olishi, guruh qoidalarini qabul qilishi ijtimoiy moslashuvning asosiy ko'rsatkichlaridir. Kognitiv moslashuv esa bolaning yangi ma'lumotlarni qabul qilishi, topshiriqlarni bajara boshlashi, diqqat va xotira jarayonlarining rivojlanishi bilan bog'liq[4].

Inklyuziv muhitga moslashuvga ko'plab omillar ta'sir qiladi. Eng muhim omillardan biri oilaning qo'llab-quvvatlovchi munosabatidir. Ota-onalarning inklyuziyaga bo'lgan ijobiy qarashi, bolaga nisbatan to'g'ri yondashuvi, uy va bog'cha o'rtasidagi tarbiyaviy uyg'unlik moslashuvni yengillashtiradi. Pedagogning malakasi ham alohida ahamiyatga ega. Inklyuziv guruhda ishlovchi tarbiyachi maxsus pedagogika, differensial yondashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash strategiyalarini bilishi, har bir bolani individual o'rganib, moslashtirilgan ta'lim usullarini qo'llay olishi lozim.[6]. Shuningdek, ta'lim tashkilotining moddiy-texnik bazasi, ya'ni sensor xonalar, maxsus didaktik materiallar, logopedik burchaklar mavjudligi ham moslashuvni samarali kechishiga xizmat qiladi.

Moslashuv jarayonida psixologning o'rni beqiyosdir. Psixolog bolalar emotsional holatini kuzatadi, individual rivojlanish xaritalarini tuzadi, zarur bo'lsa art-terapiya, o'yin terapiyasi, sensor integratsiya kabi amaliy metodlardan foydalanadi. Psixologning ota-onalar va tarbiyachilar bilan tizimli hamkorligi

boladagi moslashuv qiyinchiliklarini o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etishga yordam beradi.[7].

Inklyuziv muhitda moslashuvni yengillashtiruvchi metodlar orasida individual ta'lim dasturi tuzish, kooperativ o'yinlar, art-terapiya, sensor mashg'ulotlar, vizual ko'maklar, Montessori texnologiyasi kabi usullar eng samarali hisoblanadi. Ushbu metodlar bolaning emotsional barqarorligini ta'minlaydi, tengdoshlari bilan muloqotini kuchaytiradi, mustaqilligini oshiradi va o'ziga ishonchini shakllantiradi.[2]. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, psixologik qo'llab-quvvatlovchi muhit mavjud bo'lgan guruhlarda moslashuv ancha tez kechadi, bola 2–3 hafta ichida guruhga moslashib ulguradi, maxsus ehtiyojli bolalarda esa bu 1–2 oyga cho'zilishi mumkin.

Xulosa.

Inklyuziv ta'limga moslashuvning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagog — psixolog — ota ona hamkorligi, individual rivojlanish dasturlarining sifatli tuzilishi, ta'lim muassasasida qo'llab-quvvatlovchi emotsional muhitning mavjudligi bilan belgilanadi. To'g'ri tashkil etilgan inklyuziv muhit bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi, jamiyatga moslashuvini kuchaytiradi va ularning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi”, 2019-yil 8-maydagi 386-son qarori. www.lex.uz.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society. Cambridge University Press. Garvard universiteti nashriyoti. **Psixologiya**, [8-jild](#), 3-son, 2017-yil 16-fevral 550-bet.

4. UNESCO. Inclusive Education Guidelines, ExPress. 2009. 38-bet.
5. Ochilova M., Tolipova U. – Inklyuziv ta'lim bo'yicha o'quv qo'llanmalar. Bayoz nashriyoti 220-bet. Toshkent. 2011-yil
6. Maxmudova N. – Maktabgacha ta'lim psixologiyasi. O'quv qo'llanma Sharq nashriyoti 270-b. Toshkent – 2016.
7. Abdullaeva, M. Inklyuziv ta'lim asoslari. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti 250-b. 2021

